

ZAMONAVIY MAKTABDA RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM MUHITINI YARATISH ASOSLARI

Azamov Sherzodjon Xusanboy-o'g'li

Qo'qon davlat universiteti, p.f.f.d (PhD)

Gmail: sherzodbekazamov95@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy maktabda rivojlantiruvchi ta'lim muhitini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari tahlil etilgan. Ta'lim muhitining tarkibiy qismlari, ularning o'zaro bog'liqligi, rivojlantiruvchi ta'limning tamoyillari va metodik yondashuvlari yoritilgan. Maktab muhitini yaratishda innovatsion texnologiyalar, tarbiyaviy omillar hamda o'quvchilar shaxsiy o'sishini ta'minlashga qaratilgan ta'sirlar muhim o'rin tutadi. Ilmiy manbalar tahlili asosida rivojlantiruvchi muhit modelini shakllantirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim muhiti, rivojlantiruvchi ta'lim, innovatsion pedagogika, shaxsiy rivojlanish, maktab ta'limi, mantiqiy tafakkur, fikrlash, tushunish, natija.

ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ РАЗВИВАЮЩЕЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ

Азамов Шерзоджон Хусанбой угли

Кокандский государственный университет, д.ф.п.н (PhD)

Gmail: sherzodbekazamov95@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются психолого-педагогические основы формирования развивающей образовательной среды в современной школе. Раскрываются компоненты образовательной среды, их взаимосвязь, принципы и методические подходы развивающего обучения. Отмечается роль инновационных технологий, воспитательных факторов и условий, способствующих личностному росту учащихся. На основе анализа научных источников предложены рекомендации по формированию модели развивающей образовательной среды.

Ключевые слова: образовательная среда, развивающее обучение, инновационная педагогика, личностное развитие, школьное образование, логическое мышление, мышление, понимание, результат.

FUNDAMENTALS OF CREATING A DEVELOPMENTAL LEARNING ENVIRONMENT IN A MODERN SCHOOL

Azamov Kh. Sherzodjon

Kokand state university, (PhD)

Gmail: sherzodbekazamov95@gmail.com

Abstract: This article analyzes the pedagogical and psychological foundations for creating a developmental educational environment in modern schools. It discusses the components of the educational environment, their interrelations, and methodological approaches to developmental education. The significance of innovative technologies, educational influences, and conditions supporting students' personal growth is emphasized. Based on scientific literature, the paper offers proposals for forming a model of a developmental educational environment.

Keywords: educational environment, developmental learning, innovative pedagogy, personal development, school education, logical thinking, think, understanding, result.

Kirish: Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida shunchaki bilim berish yetarli emas; ta'limning asosiy vazifasi — o'quvchining intellektual, ijtimoiy, emotsional va axloqiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Ta'lim muhiti bu maqsadga erishishda asosiy omil hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda ta'lim muhiti — bu ta'lim jarayonining moddiy, psixologik, ijtimoiy, axloqiy va madaniy sharoitlarini qamrab oluvchi, o'quvchining shaxsiy o'sishi va ijtimoiylashuviga yo'naltirilgan muhit sifatida tavsiflanadi [Selevko, 2004; Petrushin, 2002].

Rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish masalasi, xususan, bolalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, ijodkorlik, muloqot madaniyati va shaxsiy mas'uliyatni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog'liq. L.S. Vigotskiyning ta'kidlashicha, ta'lim shaxs rivojlanishining turtkisi bo'lishi lozim,

bu esa ta'lim muhitini shunchaki emas, balki maqsadli ravishda rivojlantiruvchi muhit sifatida tashkil qilishni talab etadi [Vigotskiy, 1991].

Bugungi maktab o'quvchilari global muammolar, axborot oqimi va raqamli muhit sharoitida faoliyat yuritishga tayyor bo'lishi kerak. Bunday tayyorgarlikni ta'minlash uchun faqat darsliklar va standart o'quv rejalari yetarli emas. Shaxsni har tomonlama qo'llab-quvvatlovchi, o'z-o'zini anglash, tashabbuskorlik va ijtimoiy munosabatlar tizimida muvaffaqiyatli harakat qilishga undovchi muhit zarur [Xutorskoy, 2002; Bospalko, 1995].

Shu bois, zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyotda rivojlantiruvchi ta'lim muhitini shakllantirish masalasi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. Ushbu muhitni shakllantirishda nafaqat o'quv rejalari, balki o'qituvchining shaxsiy kompetensiyasi, pedagogik munosabatlar, maktabning madaniy va ijtimoiy muhiti ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Maqolada aynan shu kabi rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishning pedagogik-psixologik asoslari, ularning zamonaviy ta'limdagi ahamiyati va amaliyotda qo'llash imkoniyatlari ilmiy tahlil etiladi.

Metodlar: Rivojlantiruvchi ta'lim muhiti tushunchasi pedagogik fanning markaziy kategoriyalaridan biri sifatida so'nggi o'n yilliklarda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Uning nazariy asoslari asrlar davomida shakllangan va turli pedagogik yo'nalishlarda turlicha talqin etilgan. Ta'lim muhitining "rivojlantiruvchi" deb atalishi, uning faqat ma'lumot va bilim berish emas, balki shaxsning barcha jihatlarini – aqliy, axloqiy, ijtimoiy, emotsional va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilganligini anglatadi.

Bu tushunchaning ilmiy asoslari L.S. Vigotskiy, J. Piaje, A.N. Leontyev, V.V. Davidov, D.B. Elkonin va boshqa yirik pedagog va psixolog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalarga borib taqaladi. Xususan, L.S. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi rivojlantiruvchi ta'lim muhitini shakllantirishda asosiy metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [Vigotskiy, 1991]. Uning ta'kidlashicha, ta'lim faoliyati bolaning mavjud imkoniyatlarini ortig'i bilan faollashtirib, uning yangi rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlashi zarur.

V.V. Davidov va D.B. Elkonin tomonidan ishlab chiqilgan faoliyatga asoslangan ta'lim tizimida rivojlantiruvchi muhit — bu bolani mustaqil izlanishga, tahlil qilishga, nazariy fikr yuritishga undashi lozim. Bunday muhitda ta'lim jarayoni bolaning subyekti sifatida ishtirok etishi, ya'ni bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi faol shaxs sifatida faoliyat olib borishi uchun imkoniyat yaratishi kerak [Davidov, 1996].

Shuningdek, A.V. Xutorskoy ta'lim muhitining rivojlantiruvchi xususiyatini asosiy pedagogik kompetensiyalar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va tanlov erkinligini ta'minlash orqali yuzaga chiqarish mumkinligini ta'kidlaydi [Xutorskoy, 2002]. Uning fikricha, bunday muhitda o'quvchi shaxsiy tajribasi asosida yangi bilimlarni kashf etadi, faol muloqot va ijodiy faoliyat orqali shaxsiy rivojlanish sari intiladi.

Pedagogik adabiyotlarda ta'lim muhitining rivojlantiruvchi xususiyati quyidagi asosiy belgilar bilan tavsiflanadi:

- O'quvchining shaxsiy faolligini rag'batlantiruvchi shart-sharoitlar mavjudligi;
 - Mustahkam psixologik xavfsizlik va ijobiy ijtimoiy muhit;
 - Ijodiy faoliyatga keng imkoniyatlar yaratilishi;
 - Dialogik muloqot asosidagi o'qitish;
 - Ta'lim jarayonida subyekt-subyekt munosabatlarining ustuvorligi
- [Mirzaaxmedova, 2016; Petrushin, 2002].

Shu asosda, rivojlantiruvchi ta'lim muhiti faqat zamonaviy metodik vositalar yoki innovatsion texnologiyalar bilan emas, balki pedagogik munosabatlar, ta'lim falsafasi va insoniy qadriyatlarga asoslangan munosabat tizimi orqali ham shakllantirilishi lozim.

Ta'lim muhiti – bu nafaqat jismoniy makon, balki o'quvchi shaxsining rivojlanishiga, faoliyatga jalb etilishiga, ijtimoiylashuviga va motivatsiyasining shakllanishiga ta'sir qiluvchi kompleks tizimdir. Ta'lim muhitini shakllantiruvchi tarkibiy qismlarni aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligini tadqiq etish zamonaviy pedagogik tahlilning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda ta'lim muhitining asosiy tarkibiy qismlari quyidagicha belgilanadi:

- ✓ Moddiy-texnik muhit – ta'lim muassasasining jismoniy sharoiti, o'quv xonalari, kompyuterlar, laboratoriya jihozlari, kutubxonalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va boshqa resurslar. Bu muhit ta'lim faoliyatining samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi [Bespalko, 1995].
- ✓ Psixologik-emotsional muhit – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar, ishonch, qo'llab-quvvatlash, motivlashtiruvchi va empatik munosabatlar. Bu muhit o'quvchining o'zini erkin ifoda etishi va faollik ko'rsatishi uchun muhim asos hisoblanadi [Petrushin, 2002].
- ✓ Didaktik-metodik muhit – o'quv rejalari, ta'lim dasturlari, darsliklar, o'qitish usullari, pedagogik texnologiyalar va baholash tizimini o'z ichiga oladi. Bu muhit ta'lim jarayonining mazmuniy va metodik tomonlarini belgilab beradi [Xutorskoy, 2002].
- ✓ Ijtimoiy-axloqiy muhit – maktabda shakllanadigan qadriyatlar, ijtimoiy norma va qoidalar, shaxslararo munosabatlar tizimi, demokratik va insonparvar yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Ushbu muhit o'quvchida ijtimoiy mas'uliyat, jamoaviylik va axloqiy pozitsiya shakllanishini ta'minlaydi [Mirzaaxmedova, 2016].
- ✓ Tashkiliy-idoraviy muhit – ta'lim muassasasi boshqaruv tizimi, rahbarlik uslubi, maktab siyosati va ichki reglamentlardan iborat. Bu muhit ta'lim muhitining umumiy samaradorligi va barqarorligiga xizmat qiladi.

Bu tarkibiy qismlar o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sirchan tizimni tashkil etadi. Masalan, moddiy-texnik resurslar yetarli bo'lmasligi metodik muhit imkoniyatlarini cheklashi mumkin; psixologik muhitdagi salbiylik esa o'quvchilarning ijodiy faolligiga to'siq bo'ladi. Shuningdek, metodik muhitdagi innovatsion yondashuvlar (multimediyali vositalar, interaktiv darslar) moddiy-texnik ta'minlash bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning samaradorligi psixologik muhit bilan ham chambarchas bog'liq.

Ta'lim muhitining tarkibiy qismlari o'rtasidagi ushbu o'zaro bog'liqlikni inobatga olmasdan, samarali rivojlantiruvchi muhitni yaratish mumkin emas. Shu sababli, zamonaviy maktablarda ta'lim muhitini loyihalash jarayonida tizimli va kompleks yondashuvni ta'minlash zarur.

Shu bilan birga, ta'lim muhitining har bir qismida o'qituvchining roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. U ta'lim muhitini faol subyekt sifatida tashkil qiladi, uning mazmuni, ruhi va dinamikasiga ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi faoliyati, uning dunyoqarashi, shaxsiy fazilatlari va pedagogik mahoratlari ta'lim muhitining ijobiy yoki salbiy bo'lishini belgilab beradi [Selevko, 2004].

Natijalar: Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida ta'lim tizimi doimiy ravishda yangilanish va innovatsiyalarni o'zlashtirish zaruratida turibdi. Rivojlantiruvchi ta'lim muhitini tashkil etishda innovatsion yondashuvlar markaziy o'rinni egallaydi. Chunki innovatsion pedagogik texnologiyalar va faol ta'lim usullari o'quvchi shaxsini faol subyekt sifatida shakllantirish, uning mustaqil tafakkuri va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi [Xutorskoy, 2002].

Innovatsion yondashuv — bu faqat yangi axborot-kommunikatsiya vositalarini joriy etish emas, balki ta'lim jarayoniga yangi g'oyalar, mazmun va shakllar, pedagogik munosabatlarda o'zgarish kiritishdir. Ushbu yondashuv rivojlantiruvchi muhitni yaratishda quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni ta'minlash. Innovatsion yondashuvlar shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlari va o'qishdagi tempiga moslashgan o'quv muhitini yaratishga imkon beradi. Bu esa o'quvchining faolligini oshiradi, ta'limni individuallashtirish imkonini yaratadi [Bespalko, 1995].

Interaktiv texnologiyalardan foydalanish. Zamonaviy pedagogik amaliyotda klaster, mental karta, "akvarium", debat, keys-stadi, flep-chart, onlayn platforma va simulyatsiya kabi metodlar ta'lim muhitini interaktiv va muloqotga asoslangan qilib, o'quvchini markazga qo'yadi. Bunday jarayonda shaxsiy fikr bildirish, muammoni hal qilish va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalari rivojlanadi [Mirzaaxmedova, 2016].

STEAM, CLIL va dizayn-tafakkur texnologiyalarini joriy etish. Ta'limda fanlararo integratsiya (STEAM), chet tilida fan o'qitish (CLIL) va muammoga yechim topishga yo'naltirilgan dizayn-tafakkur yondashuvi o'quv muhitini yuqori kognitiv va ijodiy faoliyat uchun sharoit yaratadi. Bu esa bilimlarning nafaqat nazariy, balki amaliy qiymatini ham oshiradi [Trilling & Fadel, 2009].

Xulosa: Raqamli muhitdan samarali foydalanish rivojlantiruvchi ta'limni yaratishning asosiy shartidir. Google Classroom, Kahoot, Padlet, Zoom, Quizizz kabi onlayn vositalar ta'lim jarayonini zamonaviylashtiradi va masofaviy yoki gibridd ta'lim formatlarida ham rivojlantiruvchi muhit yaratishga imkon beradi. Bu turdagi muhit axborotga kirish imkoniyatini kengaytiradi, o'qitishda individual va differensial yondashuvlarni qo'llashni yengillashtiradi.

O'qituvchi-o'quvchi munosabatlarining demokratlashuvi. Innovatsion muhitda o'qituvchi ko'proq maslahatchi, kurator, sherik sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa o'quvchining shaxsiy pozitsiyasi va ichki motivatsiyasini mustahkamlaydi, unda o'z-o'zini baholash, o'zgarishlarga ochiq bo'lish kabi kompetensiyalar shakllanishiga zamin yaratadi.

Bunday muhitni yaratishda pedagogning innovatsion madaniyati, yangicha fikrlash qobiliyati va texnologik savodxonligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Rivojlantiruvchi muhitni innovatsion tashkil qilish uchun o'qituvchi o'zi ham tahlil qiluvchi, yaratuvchi, o'zgarishlarga moslashuvchan shaxs bo'lishi kerak.

Shu boisdan, maktab ta'lim tizimida rivojlantiruvchi muhitni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, nafaqat ta'lim samaradorligini oshirish, balki zamonaviy jamiyat talablariga javob bera oladigan faol, mustaqil fikrlovchi, ijodiy shaxsni shakllantirishning muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Выготский Л.С. Психология развития человека. — М.: Смысл, 1991. — 352 с.
2. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. — М.: Народное образование, 2004. — 256 с.

3. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. — 2002. — №5. — С. 58–64.
4. Mirzaaxmedova X.F. Ta'lim muhitini yaratishda innovatsion yondashuvlar // Pedagogika jurnali. — 2016. — №2. — B. 17–21.
5. Qorayev S.B. Pedagogika // o'quv qo'llanma Zebo print Toshkent-2023 B.40-43.